



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20284810>

Paremiologik birliklarning lingvodidaktik salohiyati va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni

Ibroximjonova Zulxumor Baxtiyor qizi –

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

1-kurs magistranti

E-mail: ibroximjonovazulxumor@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-2885-4554>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada paremiologik birliklarning lingvodidaktik salohiyati hamda ularning ta'lim jarayonidagi o'rni ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda maqol, matal va hikmatli so'zlarning o'quvchilarda nutqiy, kommunikativ hamda madaniy kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida lingvistik tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv, kuzatish va didaktik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, paremiologik birliklar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi, obrazli tafakkurini rivojlantiradi, kontekstual fikrlash va nutqda maqol hamda matallardan o'rinli foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, ular ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, paremiologik birliklardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning lingvodidaktik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali omillaridan biri hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:** paremiologik birliklar, lingvodidaktik salohiyat, ta'lim jarayoni, nutq kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, maqol va matallar, pragmatik tahlil, metodik yondashuv.*

Лингвистодидактический потенциал паремиологических единиц и их роль в образовательном процессе

***Аннотация.** В данной статье анализируется лингвистодидактический потенциал паремиологических единиц и их роль в образовательном процессе с научной, теоретической и методологической точек зрения. В условиях, когда в современной системе образования приоритет отдается компетентностному подходу, определение потенциала пословиц, изречений и мудрых изречений в формировании речевых, коммуникативных и культурных компетенций у учащихся*

является актуальной проблемой. В процессе исследования использовались методы лингвистического анализа, сравнительно-типологического подхода, наблюдения и дидактического моделирования. Анализ показывает, что паремиологические единицы расширяют словарный запас учащихся, развивают образное мышление, формируют контекстное мышление и навыки уместного использования пословиц и поговорок в речи. Они также имеют важное дидактическое значение как средство духовно-нравственного воспитания в образовательном процессе. В заключение, систематическое и целенаправленное использование паремиологических единиц является одним из эффективных факторов развития лингводидактической компетенции учащихся.

Ключевые слова: паремиологические единицы, лингводидактический потенциал, образовательный процесс, речевая компетенция, коммуникативная компетенция, компетентностный подход, пословицы и поговорки, прагматический анализ, методологический подход.

Linguvodidactic capacity of paremiological units and their role in the educational process

Annotation. This article analyzes the linguvodidactic potential of paremiological units and their role in the educational process from a scientific, theoretical and methodological perspective. In a situation where the competency-based approach is gaining priority in the modern education system, determining the potential of proverbs, sayings and wise sayings in the formation of speech, communicative and cultural competencies in students is an urgent issue. The research process used linguistic analysis, comparative-typological approach, observation and didactic modeling methods. The analysis shows that paremiological units expand students' vocabulary, develop figurative thinking, form contextual thinking and the skills of appropriate use of proverbs and sayings in speech. They also have an important didactic value as a means of spiritual and moral education in the educational process. In conclusion, the systematic and purposeful use of paremiological units is one of the effective factors in the development of students' linguodidactical competence.

Keywords: paremiological units, linguodidactical potential, educational process, speech competence, communicative competence, competency-based approach, proverbs and sayings, pragmatic analysis, methodological approach.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi endilikda faqatgina nazariy bilimlarni yetkazish emas, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirisha olish, nutqiy vaziyatlarda to'g'ri va o'rinli so'zlash kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, til o'qitish jarayonida milliy-madaniy meros namunalaridan, xususan, paremiologik birliklardan samarali foydalanish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Paremiologik birliklar - maqol, matal, hikmatli so'z va iboralar - xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari hamda estetik tafakkurini o'zida mujassam etgan ixcham va mazmunan teran til birliklaridir. Ular nafaqat badiiy nutqning bezagi, balki fikrni lo'nda, ta'sirchan va obrazli ifodalash vositasi sifatida ham qadrlanadi. Paremiologik birliklarning semantik chuqurligi, ko'chma ma'noga boyligi va pragmatik yo'nalganligi ularni lingvodidaktik jihatdan samarali vositaga aylantiradi. Lingvodidaktika til va nutq hodisalarini o'qitishning nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganuvchi fan sifatida

o'quvchilarda til kompetensiyasini shakllantirishning samarali usul va vositalarini aniqlashni maqsad qiladi. Bu jarayonda paremiologik birliklar o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, obrazli tafakkurini rivojlantirish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda kontekstual fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, maqol va matallarning tarbiyaviy yo'nalganligi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish bilan bir qatorda, ularni nutqiy vaziyatlarda to'g'ri va o'rinli qo'llash malakasini ham rivojlantiradi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, matn tahlili, muammoli vaziyatlar yaratish kabi pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Paremiologik birliklar ana shu metodlar bilan uyg'unlashgan holda o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi, ularni mustaqil xulosa chiqarishga undaydi hamda nutqiy kompetensiyani kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois paremiologik birliklarning lingvodidaktik salohiyatini ilmiy asosda tadqiq etish, ularning ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash va metodik jihatdan tizimlashtirish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada paremiologik birliklarning lingvodidaktik imkoniyatlari, ularning nutqiy va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi roli hamda ta'lim jarayonida qo'llashning samarali metodik yo'llari tahlil qilinadi.

Hozirgi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda o'quvchilarning nutq madaniyati, mustaqil fikrlashi hamda kommunikativ savodxonligini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ko'pincha grammatik qoidalarni o'zlashtirgan bo'lsalar-da, fikrni obrazli, lo'nda va ta'sirchan ifodalashda, shuningdek, milliy-madaniy mazmunga ega til birliklaridan o'rinli foydalanishda qiyinchilikka duch keladilar. Bu esa til ta'limida nafaqat nazariy bilim, balki nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali vositalarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Ular o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, ko'chma ma'noni anglash, kontekstual fikrlash hamda nutqda ifoda aniqligiga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ta'lim amaliyotida paremiologik birliklardan ko'proq tarbiyaviy yoki bezak vositasi sifatida foydalanilib, ularning lingvodidaktik salohiyati yetarli darajada tizimli o'rganilmayotgani kuzatiladi. Shu sababli paremiologik birliklarning lingvodidaktik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularni kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurati mavjud. Mazkur masalaning o'rganilishi o'quvchilarda nafaqat nutqiy va kommunikativ kompetensiyani, balki milliy-madaniy tafakkurni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Aynan shu jihatlar mavzuning ilmiy va amaliy dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Paremiologik birliklar (maqol, matal, hikmatli so'zlar) xalqning tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti va axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtirgan barqaror til birliklari sifatida tilshunoslikda keng o'rganilgan. Paremiologiya terminini ilmiy muomalaga kiritgan va uni mustaqil tadqiqot sohasi sifatida asoslab bergan olimlardan biri - Grigoriy Permyakov hisoblanadi. U maqol va matallarni nafaqat folklor janri, balki tilning struktur-semantik tizimiga mansub birlik sifatida talqin qiladi hamda ularni mantiqiy-model asosida tasniflaydi[1;50-b]. Permyakovga ko'ra, paremiologik birliklar inson tafakkurining tipik mantiqiy konstruksiyalarini aks ettiradi va universal semantik modellarga ega. Paremiologik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari masalasi rus paremiologiya maktabi vakillari tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, Valentina Maslova lingvokulturologik yondashuv asosida maqollarni milliy madaniyatning verbal kodi sifatida talqin qiladi[2;130b]. Uning fikricha, maqollar xalqning konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik bo'lib, ular orqali milliy mentalitet va qadriyatlar tizimi namoyon bo'ladi. O'zbek tilshunosligida paremiologik birliklarni tizimli o'rganish ishlari bir qator olimlar tomonidan olib borilgan. Shavkat Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasi va

paremiologiyasi doirasida maqol va matallarning struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlarini ko'rsatib beradi [3;140-b]. Olim maqollarni tilning barqaror birliklari sifatida baholab, ularning kommunikativ va ekspressiv vazifalarini alohida ta'kidlaydi. Folklorshunos olimi Zuhra Husainova o'zbek xalq maqollarining janriy, tematik va poetik xususiyatlarini o'rganib, ularning tarbiyaviy va didaktik mohiyatiga urg'u beradi [4;28-b]. Uning ta'kidlashicha, maqollar xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Lingvodidaktika nuqtai nazaridan paremiologik birliklarning ahamiyati Nina Shanskiy va boshqa metodist olimlar tomonidan asoslab berilgan. Ularning fikricha, barqaror iboralar va maqollarni o'qitish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini, obrazli tafakkurini va madaniy bilimlarini rivojlantiradi.

Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarda paremiologik birliklar kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Chunki maqollar kontekstual, pragmatik va madaniy ma'no yukiga ega bo'lib, til egasining diskursiv malakasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular intertekstual birlik sifatida matnni boyitadi va o'quvchilarda analitik tafakkurni rivojlantiradi.

Shu tariqa, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, paremiologik birliklar:

1. Semantik va struktur jihatdan mukammal tizimga ega;
2. Lingvokulturologik axborotni mujassamlashtiradi;
3. Kommunikativ va didaktik salohiyatga ega;
4. Ta'lim jarayonida nutqiy, madaniy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - paremiologik birliklarning lingvodidaktik salohiyatini aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi o'rnini o'rganish. Shu maqsadda tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar va yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

1. *Tavsifiy (deskriptiv) metod.* Tavsifiy metod paremiologik birliklarning struktura-semantik xususiyatlarini aniqlashda qo'llanildi. Bu metod orqali maqol va matallarning lingvistik tarkibi, semantik qatlamlari, frazeologik va kontekstual vazifalari tizimli tarzda tavsiflandi. G. Permyakovning (1970) paremiologik birliklarning mantiqiy va semantik modellari haqidagi nazariyasi tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

2. *Lingvokulturologik tahlil metodi.* Lingvokulturologik yondashuv orqali paremiologik birliklarning milliy-madaniy mazmuni va xalq mentaliteti bilan bog'liqligi o'rganildi. V. Maslova (2001) konsepsiyasiga tayangan holda maqollar xalq konseptual maydonidagi ma'no yukini, qadriyat va axloqiy tamoyillarini aks ettiruvchi birlik sifatida tahlil qilindi. Bu metod yordamida maqollarning milliy identitetni shakllantirishdagi ahamiyati va lingvokulturologik xususiyati aniqlangan.

3. *Lingvodidaktik tahlil.* Lingvodidaktik metod tadqiqotning eng muhim qismi bo'lib, paremiologik birliklarning o'quv jarayonidagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. N. Shanskiyning (1985) fikricha, paremiologik birliklarni o'qitish o'quvchilarning nutqiy, mantiqiy va madaniy kompetensiyasini rivojlantiradi. Tadqiqot jarayonida maqollarni interfaol metodlar bilan o'rgatish samaradorligi (masalan, klasterlash, konseptual xaritalar, matn yaratish mashqlari) sinovdan o'tkazildi [5].

4. *Qiyosiy-tahliliy metod.* O'zbek va rus tilshunosligi bo'yicha paremiologik birliklarning tadqiqot natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Bu metod yordamida umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, paremiologik birliklarning lingvodidaktik salohiyatini milliy va universal nuqtai nazardan baholash imkoniyati yaratildi.

5. *Kuzatish va tajriba-sinov metodi.* Umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslarida maqollarni o'qitish jarayoni kuzatildi. Tadqiqot davomida quyidagi kuzatuvlar amalga oshirildi:

a) o'quvchilarning paremiologik birliklarni tushunish darajasi va nutqiy qo'llash qobiliyati;

b) maqollarni interaktiv va muloqotga asoslangan metodlar orqali o'rgatish samaradorligi;

c) o'quvchilarning madaniy va axloqiy qadriyatlarni qabul qilish jarayoni.

Tajribaviy qismda paremiologik birliklarni o'qitishda turli metodlar solishtirildi: an'anaviy izohlash, kontekstual matnlar bilan ishlash, drammatizatsiya va kreativ yozma mashqlar. Natijada, interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi va tahliliy tafakkuri sezilarli darajada rivojlanishi aniqlangan.

6. *Semantik va pragmatik tahlil.* Maqollar va matallar nutqdagi kontekstual ma'nosi, pragmatik vazifasi va kommunikativ funksiyasi bo'yicha tahlil qilindi. Bu metod orqali paremiologik birliklarning dialog va monolog nutqdagi qo'llanilishi hamda pedagogik samaradorligi o'rganildi.

7. *Integratsiyalashgan metod yondashuvi.* Tadqiqotning yakuniy bosqichida yuqoridagi metodlar integratsiyalashgan holda qo'llanib, paremiologik birliklarning lingvodidaktik salohiyatini to'liq tizimli tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bu yondashuv o'quv jarayonida maqollarning nutqiy, madaniy, axloqiy va pedagogik funksiyalarini bir vaqtda o'rganishga xizmat qiladi. Xulosa sifatida, metodologiya bo'limi tadqiqotga quyidagi ilmiy asosni berdi: paremiologik birliklarni lingvodidaktik jihatdan o'rganish uchun nafaqat tilshunoslik va frazeologiya metodlari, balki lingvokulturologik, pragmatik va didaktik yondashuvlarni kompleks tarzda qo'llash zarur. Shu bilan birga, eksperimental tadqiqotlar o'quvchilarning nutqiy va madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda maqollar samaradorligini amalda tasdiqladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Paremiologik birliklar ta'lim jarayonida bir nechta jihatdan muhim ahamiyatga ega: ular nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi, madaniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi, shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy va analitik tafakkurini rag'batlantiradi. Kuzatuv va tajriba-sinovlar shuni ko'rsatdiki, paremiologik birliklar yordamida dars o'quvchilarda kontekstga mos nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Misol uchun, interfaol metodlar (klasterlash, matn yaratish, drammatizatsiya) orqali maqollarni o'rgatish o'quvchilarning so'z boyligini sezilarli darajada oshirdi va nutqdagi ifodaviylikni kuchaytirdi. Bu xulosa Sh.Rahmatullayev (1992) va N.Shanskiy (1985) tadqiqotlari bilan mos keladi, ularda maqollarni nutqiy malakani rivojlantirish vositasi sifatida qo'llash tavsiya qilingan [3,5]. O'zbek xalq maqollari milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va urf-odatlarini aks ettiradi. Tadqiqot davomida o'quvchilar bilan ishlash shuni ko'rsatdiki, maqollarni tushuntirish va ularni hayotiy misollar bilan bog'lash o'quvchilarda axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshiradi, milliy madaniyatni qadrlash hissini rivojlantiradi. Z.Husainova (1985) ham maqollarni xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi [4;110-b]. Maqollarni an'anaviy izohlash metodidan ko'ra interfaol va kontekstual metodlar bilan o'rgatish samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan. Misol uchun, o'quvchilar matn ichida maqolni topish, ularni o'z so'zlari bilan ifodalash va guruh ishlari orqali qo'llash orqali nutqiy va mantiqiy malakalarni yanada rivojlantirdi. Shu bilan birga, metodlarni o'quvchilarning yoshiga va faolligiga moslashtirish zarur, chunki ayrim darslarda passiv o'quvchilar uchun interfaol metodlar samaradorligi past bo'lishi mumkin. O'zbek va rus tilshunosligi bo'yicha paremiologik birliklar qiyosiy tahlil qilindi. O'zbek maqollari ko'proq axloqiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarga urg'u berayotgan bo'lsa, rus paremiologik birliklari ko'pincha mantiqiy-pragmatik vazifaga ega. Shu asosda, o'quv jarayonida paremiologik birliklarni tanlash milliy va pedagogik kontekstga mos bo'lishi lozim. Tadqiqot jarayonida kuzatilgan tajriba-sinovlar shuni ko'rsatdiki, maqollarni interfaol metodlar orqali o'rgatish o'quvchilarda nafaqat nutqiy malaka, balki tahliliy tafakkur va ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. O'quvchilarning ijodiy vazifalarni bajarish jarayonidagi faoliyati paremiologik birliklarning didaktik salohiyati yuqori ekanligini tasdiqladi. Shu

bilan birga, tadqiqot cheklovlari ham mavjud: interfaol metodlarning samaradorligi o'quvchining shaxsiy qiziqishi, yosh xususiyatlari va darsdagi faol ishtirokiga bog'liq. Shu sababli paremiologik birliklarni ta'lim jarayonida qo'llashda metodlarni individual va guruh xususiyatlariga moslashtirish tavsiya etiladi.

Paremiologik birliklar ta'lim jarayonida bir qancha jihatdan muhim rol o'ynaydi. Avvalo, ular o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tajribaviy ishlar davomida interfaol metodlar - klasterlash, matn yaratish, dramatisatsiya - yordamida maqollarni o'rgatish o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga, mantiqiy fikrlash va ifodaviy nutqni shakllantirishga yordam berganligi aniqlangan. O'quvchilar maqollarni kontekstual matnlarda topish, ularni tahlil qilish va o'z so'zlari bilan ifodalash jarayonida nutqiy malakalarini mustahkamladi, bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi.

Ikkinchidan, paremiologik birliklar madaniy va axloqiy tarbiya vositasi sifatida samarali ekanligi aniqlangan. O'zbek xalq maqollari milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va urf-odatlarini aks ettiradi. Tadqiqot davomida o'quvchilar bilan ishlash shuni ko'rsatdiki, maqollarni tushuntirish va ularni hayotiy misollar bilan bog'lash o'quvchilarda axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi va milliy madaniyatni qadrlash hissini shakllantirdi. Shu jihatdan paremiologik birliklar xalq pedagogikasining ajralmas qismi sifatida ham samarali vosita ekanligi tasdiqlandi.

Uchinchidan, lingvodidaktik nuqtai nazardan interfaol va kontekstual metodlar yordamida maqollarni o'rgatish an'anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlangan. O'quvchilar matn ichida maqolni topish, uni tahlil qilish va guruh ishlari orqali qo'llash jarayonida nutqiy va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirdi. Shu bilan birga, metodlarni o'quvchilarning yosh va faollik darajasiga moslashtirish zarurligi aniqlangan, chunki ayrim passiv o'quvchilar uchun interfaol metodlar samaradorligi pastroq bo'lishi mumkin. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek va rus paremiologik birliklarining funksional yo'nalishlari farq qiladi: o'zbek maqollari ko'proq axloqiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarga urg'u berar ekan, rus paremiologik birliklari asosan mantiqiy-pragmatik vazifaga ega. Shu sababli, dars jarayonida maqollarni tanlash milliy va pedagogik kontekstga mos bo'lishi lozim. Shuningdek, eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, paremiologik birliklarni interfaol metodlar orqali o'rgatish o'quvchilarda nafaqat nutqiy malaka, balki tahliliy tafakkur va ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. O'quvchilarning ijodiy vazifalarni bajarish jarayonidagi faoliyati maqollarning didaktik salohiyatining yuqori ekanligini tasdiqladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari paremiologik birliklarning ta'lim jarayonida nutqiy, madaniy, axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ularni interfaol va kontekstual metodlar orqali o'rgatish pedagogik samaradorlikni oshiradi va o'quvchilarda milliy madaniyat hamda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – paremiologik birliklarning lingvodidaktik salohiyatini aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi o'rnini o'rganish edi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, paremiologik birliklar nafaqat tilning struktur-semantik va frazeologik xususiyatlarini o'rganishda, balki o'quvchilarning nutqiy, madaniy va axloqiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Paremiologik birliklar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Kuzatuv va eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar yordamida maqollarni o'rgatish o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, mantiqiy fikrlash va ifodaviy nutqni rivojlantiradi hamda ularning kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, paremiologik birliklarni kontekstual matnlar bilan bog'lash va ijodiy vazifalar orqali ishlash o'quvchilarning tahliliy tafakkurini yanada

rivojlantiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, paremiologik birliklar madaniy va axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham samarali hisoblanadi. O'zbek xalq maqollari milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va urf-odatlarini aks ettiradi. Maqollarni darslarda tushuntirish va ularni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash o'quvchilarda axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, milliy madaniyatni qadrlash hissini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan paremiologik birliklar xalq pedagogikasining ajralmas qismi ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Lingvodidaktik samaradorlik jihatidan interfaol va kontekstual metodlar an'anaviy izohlash metodlariga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlangan. O'quvchilarning maqollarni guruh ishlari, drammatizatsiya va matn yaratish orqali o'rgatish jarayonida nutqiy va madaniy kompetensiyalari sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, metodlarni o'quvchilarning yosh va faoliyat xususiyatlariga moslashtirish zarurligi aniqlangan, chunki ayrim passiv o'quvchilar uchun interfaol metodlarning samaradorligi past bo'lishi mumkin. Shuningdek, qiyosiy tahlil paremiologik birliklarning milliy xususiyatlarini aniqlashga yordam berdi. O'zbek maqollari ko'proq axloqiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarga urg'u berar ekan, rus paremiologik birliklari asosan mantiqiy-pragmatik vazifaga ega. Shu sababli, dars jarayonida paremiologik birliklarni tanlash milliy va pedagogik kontekstga mos bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки: заметки по общей теории клише. – Москва: Наука, 1970. – 240 с.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – 379 b.
4. Husainova Z. O'zbek xalq maqollari poetikasi. – Toshkent, 1985.
5. Qurbonova D.B. Effective methods of teaching language through English and Uzbek proverbs // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – Vol. 5, No. 10. – P. 1628–1631.
6. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Высшая школа, 1985. – 160 с.
7. Arxiv.uz [Elektron resurs]. – URL: <https://www.arxiv.uz>. – Murojaat qilingan sana: 19.05.2026.
8. Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'i portali [Elektron resurs]. – URL: <https://www.ziyonet.uz>. – Murojaat qilingan sana: 19.05.2026.